



THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF THE LAW OF OBLIGATIONS IN THE SYSTEM OF CIVIL LAW

Aminkhodja Jamolov

*Senior Lecturer, Department of "Social and Natural Sciences"
Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering
Samarkand, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: civil law, law of obligations, obligation, contract, civil liability, creditor, debtor.

Received: 21.06.26

Accepted: 22.06.26

Published: 23.06.26

Abstract: This article analyzes the place and significance of the law of obligations in the system of civil law, its fundamental role, and functions in regulating economic relations under market economy conditions. The author examines the development trends of the institute of the law of obligations and proposes scientific recommendations for improving national legislation.

MAJBURIYAT HUQUQINING FUQAROLIK HUQUQI TIZIMIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Aminxo'ja Jamolov

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
"Ijtimoiy va tabiiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchisi
Samarqand, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: fuqarolik huquqi, majburiyat huquqi, majburiyat, shartnoma, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, kreditor, qarzdor.

Annotatsiya: Ushbu maqolada majburiyat huquqining fuqarolik huquqi tizimidagi tutgan o'rnini, uning fundamental ahamiyati hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishdagi funksiyalari tahlil qilinadi. Muallif majburiyat huquqi institutining rivojlanish tendensiyalarini o'rganib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ilgari suradi.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ПРАВА ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В СИСТЕМЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА*Аминходжа Джамолов**Старший преподаватель кафедры «Социальные и естественные науки»**Самаркандский государственный университет архитектуры и строительства**Самарканд, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: гражданское право, обязательственное право, обязательство, договор, гражданско-правовая ответственность, кредитор, должник.

Аннотация: В данной статье анализируются место и значение обязательственного права в системе гражданского права, его фундаментальная роль и функции в регулировании экономических отношений в условиях рыночной экономики. Автор исследует тенденции развития института обязательственного права и выдвигает научные предложения по совершенствованию национального законодательства.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolik muomalasining barqarorligi va jadal rivojlanishi bevosita majburiyat huquqi institutining samaradorligiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli huquqiy va iqtisodiy islohotlar sharoitida fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Majburiyat huquqi fuqarolik huquqining eng dinamik va hajman yirik qismlaridan biri bo‘lib, u tovar-pul munosabatlarining huquqiy shaklini ifodalaydi. Jamiyatda moddiy va nomoddiy ne‘matlarning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishi, xizmat ko‘rsatish, ishlarni bajarish va mulkiy munosabatlarning statik holatdan dinamik holatga o‘tishi aynan majburiyat huquqi vositasida amalga oshiriladi.

Fuqarolik kodeksining yangi tahriri loyihasini tayyorlash va huquqni qo‘llash amaliyotini modernizatsiya qilish sharoitida, majburiyat huquqining tizimdagi o‘rni va uning boshqa huquqiy institutlar (masalan, ashyoviy huquq, intellektual mulk huquqi) bilan o‘zaro aloqasini zamonaviy yondashuvlar asosida qayta anglash ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi. Majburiyat huquqi sohasi uzoq tarixga ega bo‘lib, Rim xususiy huquqi davridan buyon huquqshunos olimlar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Klassik fuqarolik huquqi maktabi doirasida ushbu institut xorijiy olimlar (M.I. Braginskiy, V.V. Vitryanskiy, O.S. Ioffe, E.A. Suxanov) tomonidan fundamental tarzda o‘rganilgan. Ularning asarlarida majburiyatlarning

umumiy nazariyasi, shartnoma huquqi va majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik masalalari chuqur tahlil qilingan.

O‘zbekiston yuridik fanida ham majburiyat huquqining turli jihatlarini mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan: H.R. Rahmonqulov, I.B. Zokirov kabi akademik va professorlarning darslik hamda monografiyalarida majburiyat huquqining fuqarolik huquqi tizimidagi konseptual o‘rni belgilab berilgan.

O‘zbekistonda bozor munosabatlari rivojlanishi davrida shartnomaviy-huquqiy munosabatlar va majburiyatlar bajarilishini ta‘minlash masalalari O.Oqyulov, Sh.Asadov, M.Baratov kabi olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Muhokama va natijalar. Fuqarolik huquqi tizimi O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi asosiy huquqiy me‘yorlar majmuasidir. Ushbu tizim fuqarolarning va yuridik shaxslarning mulkiy, shaxsiy nomulkiy huquqlari va manfaatlarini himoyasini ta‘minlashga qaratilgan. Fuqarolik huquqining predmeti nihoyatda keng bo‘lib, u mulkning barcha shakllarini – xususiy va ommaviy mulkni mustahkamlash, tasarruf qilish hamda himoya qilish huquqlarini belgilaydi [1].

Fuqarolik huquqi o‘z navbatida bir necha asosiy kichik tarmoqlarga bo‘linadi. Bularga Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, Majburiyat huquqi, Intellektual mulk huquqi, Vorislik huquqi va Shartnoma huquqi kabi sohalar kiradi [2]. Bu kichik tarmoqlar ichida Majburiyat huquqi alohida va markaziy o‘rinni egallaydi. Agar mulk huquqi ashyolar va huquqlarning ma‘lum bir subyektga tegishliligini belgilasa, majburiyat huquqi subyektlar o‘rtasidagi dinamik, faol munosabatlarni, ya‘ni bir tarafning boshqa taraf uchun foyda keltiruvchi harakatlarni amalga oshirishini tartibga soladi. Ushbu dinamik xarakter bozor munosabatlari sharoitida katta ahamiyatga ega, chunki barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarishi jamiyatning har bir a‘zosi manfaatlariga bevosita xizmat qiladi.

Majburiyat huquqining asosiy manbai O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (FK) hisoblanadi. Xususan, Kodeksning III bo‘limi, ya‘ni 20-22-boblarida majburiyat huquqining umumiy qoidalari, majburiyat tushunchasi, taraflari, ularning bajarilishi va bajarilishini ta‘minlash masalalari batafsil bayon qilingan [3]. Huquqiy normalarni to‘g‘ri tushunish va qo‘llash uchun nafaqat qonunchilik hujjatlari, balki akademik manbalar – yuridik fanlar doktorlari va professorlar tomonidan tayyorlangan darsliklar [4], shuningdek, Oliy sudning Plenum qarorlari kabi sud amaliyoti manbalari muhim o‘rin tutadi [5].

Bu manbalar orasidagi uzviy bog‘liqlik o‘zbek huquqiy tizimining tizimli va mantiqiy qurilishini aks ettiradi. Fuqarolik kodeksining umumiy qoidalari barcha fuqarolik-huquqiy munosabatlarning asosini tashkil etadi [1]. Majburiyat huquqi o‘z navbatida o‘zining Umumiy

qismiga ega [4], bu uning o'z ichida ham ma'lum bir pog'onali tizimga egaligini ko'rsatadi. Eng muhimi, sud amaliyoti bu qoidalarning real hayotda qanday qo'llanilishini aniqlab beradi [6]. Bu esa huquqiy normalarning statik qog'ozdan iborat emasligini, balki jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga moslashib, doimiy rivojlanib borishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 234-moddasiga binoan, majburiyat – bu bir shaxs (qarzdor) ikkinchi shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga (masalan, mol-mulkni topshirish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lash) yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladigan fuqarolik-huquqiy munosabatdir [4]. O'z navbatida, kreditor qarzdordan uning majburiyatini bajarishni talab qilish huquqiga ega.

Fuqarolik kodeksining 235-moddasiga ko'ra, majburiyatning har bir tarafida bir yoki bir nechta shaxs ishtirok etishi mumkin. Agar taraflar o'zaro majburiyatlarga ega bo'lsa (masalan, oldi-sotdi shartnomasida), har bir taraf boshqa tarafga nisbatan ham qarzdor, ham kreditor hisoblanadi.

Majburiyatlar yuridik faktdan, ya'ni huquqiy oqibatni keltirib chiqaruvchi hayotiy holatdan kelib chiqadi. O'zbekiston Fuqarolik kodeksi majburiyatlarning vujudga kelishi uchun quyidagi asoslarni belgilaydi:

- Majburiyatlarning mutlaq ko'pchiligi shartnomalar asosida vujudga keladi. Shartnoma – bu ikki yoki undan ortiq shaxsning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini o'rnatish, o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi. Masalan, tovar etkazib berish shartnomasi, xizmat ko'rsatish shartnomasi va boshqalar.

- Shartnomaviy munosabatlardan tashqari, boshqa shaxsning mol-mulkiga yoki sog'lig'iga zarar etkazish ham majburiyatning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday majburiyatlar shartnomaviy bo'lmagan (delikt) majburiyatlar deb ataladi.

- Fuqarolik kodeksida ko'rsatilgan boshqa asoslar, jumladan, bir tomonlama bitimlar (masalan, ommaviy mukofot va'dasi) [9], shuningdek, asossiz boylik orttirish kabi holatlar ham majburiyatlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Majburiyatlar odatda ularda ishtirok etmagan uchinchi shaxslar uchun majburiyatlar yaratmaydi. Biroq, qonun yoki shartnomada ko'rsatilgan hollarda, majburiyat uchinchi shaxs uchun kreditorga yoki qarzdorga nisbatan huquqlar yaratishi mumkin.

Majburiyat huquqining o'zi ham o'z ichida kichik tarmoqlarga bo'linadi: shartnomalar huquqi va delikt huquqi [9]. Bu ikkala tarmoq uchun ham yagona, umumiy bo'lgan “Umumiy qism” mavjud. Majburiyatlarning har ikkala turi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud bo'lib, bu ularning kelib chiqish asoslari, ishtirokchilari va javobgarlikning tabiati bilan belgilanadi.

Shartnomaviy va delikt majburiyatlarning eng asosiy farqi nafaqat ularning kelib chiqishida, balki huquqiy javobgarlikning asoslarida ham namoyon bo‘ladi. Shartnomaviy munosabatlarda qarzdorning majburiyatni ongli ravishda bajarmasligi (qasd) yoki beparvolik bilan munosabatda bo‘lganligi (ehtiyotsizlik) asosiy javobgarlik sharti hisoblanadi [10]. Bu holat taraflarning shartnoma doirasidagi o‘zaro ishonchiga va mas’uliyatiga asoslanadi.

Aksincha, delikt huquqida javobgarlik ba’zan aybga bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Bu o‘ziga xos mexanizm bo‘lib, huquqiy tizimning jabrlangan shaxs manfaatini himoya qilishga qaratilganini ko‘rsatadi. Masalan, yuqori xavf manbai (transport, mexanizmlar va boshqalar) faoliyati natijasida etkazilgan zarar uchun, agar qonunda boshqacha belgilanmagan bo‘lsa, aybdorlikdan qat’i nazar javobgarlik kelib chiqishi mumkin. Bu qoida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i, mol-mulki himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, majburiyat huquqi shartnoma va deliktdan tashqari yana bir manba turi – bir tomonlama harakatlar (bitimlar)dan kelib chiqadigan majburiyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu majburiyat huquqining keng qamrovli va murakkab tizim ekanligidan dalolat beradi.

Majburiyatlarning bajarilishi huquqiy munosabatlarning yakuniy va eng muhim bosqichi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 236-moddasida belgilanganidek, majburiyatlar qonunchilik va shartnoma shartlariga muvofiq lozim darajada bajarilishi shart. Agar bunday shartlar mavjud bo‘lmasa, majburiyatlar ish muomalasi odatlariga yoki boshqa umume’tirof etilgan talablarga muvofiq bajarilishi lozim.

“Lozim darajada bajarish” tamoyili qarzdordan o‘z majburiyatini bajarishda ma’lum darajada diqqat-e’tibor, g‘amxo‘rlik va tashabbus ko‘rsatishni talab etadi.¹⁰ Ba’zi hollarda, majburiyatning aniq bajarilishi tamoyili ham qo‘llaniladi. Bu tamoyil shartnomada ko‘rsatilgan harakatning aynan o‘zi bajarilishini, topshirilishi lozim bo‘lgan narsaning asl holatda etkazilishini anglatadi.

Majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi uchun bir qancha shartlarga rioya qilish talab etiladi:

Bajarilish muddati. Agar shartnomada muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa yoki uni talab qilish vaqti bilan belgilanmagan bo‘lsa, kreditor majburiyatni istalgan vaqtda talab qilish huquqiga ega bo‘ladi, qarzdor esa uni talab qilingan kundan boshlab etti kun ichida bajarishi shart. Shartnoma yoki qonunda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, majburiyatni muddatidan ilgari bajarishga ham yo‘l qo‘yiladi.

Bajarilish joyi. Agar shartnoma yoki qonunda bajarilish joyi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, majburiyatning bajarilish joyi uning predmetiga qarab Fuqarolik kodeksining 246-moddasidagi qoidalarga asosan belgilanadi. Masalan, ko‘chmas mulk majburiyatlari mol-mulkning joylashgan

joyida bajariladi, pul majburiyatlari esa kreditorning yashash joyida yoki joylashgan erida amalga oshiriladi.

Pul majburiyatlari. Pul majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi hududida milliy valyutada ifodalanadi, ammo shartnomada xorijiy valyuta ekvivalentini ko‘rsatishga ruxsat beriladi. Bunday hollarda to‘lov rasmiy kurs bo‘yicha amalga oshiriladi.

Qismlarga bo‘lib bajarish. Kreditor majburiyatning qismlarga bo‘lib bajarilishini qabul qilmaslikka haqli, agar qonun yoki shartnomada boshqacha holat nazarda tutilmagan bo‘lsa [4].

Majburiyat huquqining mohiyatini chuqur anglash uchun uning qonuniy normalari bilan bir qatorda, ularning amaliy qo‘llanilishini ham tahlil qilish zarur. Bu jarayon huquqiy norma, uning ilmiy sharhi va sud amaliyoti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudining 2007-yildagi Plenum qarori majburiyatlarni buzganlik uchun mulkiy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini qo‘llash bo‘yicha sudlarga muhim ko‘rsatmalar beradi [6].

Ushbu qaror neustoyka, ziyonni qoplash va foizlarni undirish bo‘yicha amaliy qoidalarni aniqlashtiradi. Masalan, u shartnoma tuzilmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan hollarda mulkiy javobgarlik talabini qondirib bo‘lmasligini belgilaydi. Bu o‘zaro munosabatlarda hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi muhimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, qaror neustoyka miqdorini kamaytirish, zararining qaysi qismini undirish va pul majburiyatlari uchun foizlarni hisoblash tartibi kabi nozik jihatlarni tushuntiradi.

Bundan tashqari, sud amaliyotidan olingan real keyslar nazariy qoidalarning qanday qo‘llanilishini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, “Betolux” MChJ va “Maxsus mexanizatsiyalashgan yo‘l stantsiyasi” o‘rtasidagi mahsulot etkazib berish shartnomasini buzilishi bo‘yicha Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining ishi shartnoma buzilishi bo‘yicha amaliyotga misol bo‘lib xizmat qiladi [12]. Bunday misollar yuridik normalarning “jonli” ekanligini, ular real hayotiy vaziyatlarni hal qilish uchun xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bu jarayon shuni anglatadiki, huquq normasi statik emas, balki dinamik xarakterga ega. U jamiyat ehtiyojlari va iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi bilan sud amaliyoti orqali takomillashib boradi. Shuning uchun majburiyat huquqini chuqur o‘rganish nafaqat kodeksni, balki sud qarorlarini ham o‘z ichiga olishi shart.

Xulosa qilib aytganda, majburiyat huquqi O‘zbekiston fuqarolik huquqi tizimining asosiy va dinamik qismi bo‘lib, ijtimoiy va iqtodiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Uning asosiy vazifasi fuqarolik muomalasi ishtirokchilari o‘rtasidagi majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash va ularning huquqiy himoyasini kuchaytirishdan iboratdir.

Ushbu huquqiy soha shartnoma, delikt va boshqa asoslardan kelib chiqadigan majburiyatlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va javobgarlik asoslariga ega. Majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi tamoyili, shuningdek, turli ta'minlash usullari huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi. Majburiyatlar buzilgan taqdirda javobgarlikning turli shakllari (neustoyka, ziyonni qoplash, foizlar) qo'llaniladi, bu esa kreditorning buzilgan huquqlarini tiklashga yordam beradi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi va xalqaro hamkorlikning kuchayishi bilan majburiyat huquqi sohasidagi qonunchilik va sud amaliyoti doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Bu esa huquqiy munosabatlarning yanada barqaror va shaffof bo'lishiga xizmat qiladi, chunki huquqiy tizimning o'zi nafaqat qonun normalaridan, balki ularning ilmiy sharhi va amaliy qo'llanilishidan tashkil topgan yagona, dinamik tizimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Obligations arising from damage in civil law and the procedure for their compensation. (2025). Наука и инновации в системе образования, 4(4), 136-138. <https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.sies.81636>
2. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.
3. <https://srsl.uz/adminpanel/files/global/kitoblar/44/Fuqarolik%20huquqi.pdf>
4. Fuqarolik kodeksi. (20-22 boblar. 234-312 moddalar)» | NRM.uz, [https://nrm.uz/contentf?doc=9126_fuqarolik_kodeksi_\(20-22_boblar_234-312_moddalar\)&products=1_zakonodatelstvo_ruz&trr](https://nrm.uz/contentf?doc=9126_fuqarolik_kodeksi_(20-22_boblar_234-312_moddalar)&products=1_zakonodatelstvo_ruz&trr)
5. <https://samdaqu.edu.uz/sites/default/files/Fan%20dasturi/2-kurs%20dasturlar/REKTORAT%20KAFEDRALARI/O'quv%20dasturlar/Majburiyatlar%20qonuni.pdf>
6. <https://lex.uz/uz/docs/-1636810?ONDATE=16.12.2024>
7. <https://lex.uz/acts/-7305182>
8. Majburiyat - Vikipediya, <https://uz.wikipedia.org/wiki/Majburiyat>
9. https://renessans-edu.uz/files/books/2024-11-28-11-17-36_25d65ba41f2052e6486ecfb9274aa45c.pdf
10. <https://www.scribd.com/document/780943794/Majburiyatlarni-buzganlik-uchun-javobgarlik>
11. <https://docx.uz/document/majburiyat-huquqi-va-majburiyatni-vujudga-kelishi-9280e08d?lang=uz>

12. Doniyorbek Baxtiyor O'g'li Imomniyozov, Guljazira Shuraxanovna Atalikova
Ingliz va milliy huquqimizda shartnomaviy javobgarlikning asoslari // Central Asian Academic
Journal of Scientific Research. 2022. №2.